

**"TASDIQLAYMAN"**  
**"O'zbekiston temir yo'llari" AJ**  
**boshqaruvi raisi**



**Z.G'.Narzullayev**

2026-yil "26" iyun

**"O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi rahbarligida**  
**o'tkazilgan 33- sonli yig'ilish BAYONI**

2026-yil " 23 " iyun

Toshkent sh.

**Yig'ilish raisi:** Z.G'.Narzullayev – "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruvi raisi.

**Yig'ilish qatnashchilari:** J.Z. Yusupov – Boshqaruv raisi o'rinbosari; D.A. Sabirov - Personalni boshqarish va kadrlarni tayyorlash departamenti boshlig'i; F.Y. Zulfikarov – Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i; A.Sh.Raximov – Yuridik departament boshlig'i; Jamiyatning tarkibiy tuzilmalari rahbarlari hamda tegishli xodimlari.

**KUN TARTIBI:**

**O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 8-iyundagi 04-06/5236-sonli-XDFU xatida keltirilgan topshiriqlar yuzasidan**

*(Narzullayev, Yusupov, Zulfikarov, Sabirov, Raximov, Narzullayev)*

Kun tartibidagi masala yuzasidan "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisi o'rinbosari J.Z.Yusupov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligining 2026-yil 8-iyundagi 04-06/5236-son-XDFU xatining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 31-dekabdagi PF-270-son Farmoniga 9-bandiga muvofiq, korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari ilmiy muassasalar, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari va fuqarolik jamiyati institutlarning doimiy va o'zaro hamkorligiga asoslangan Korrupsiyaning oldini olishning klasster tizimi joriy etilganini ta'kidlab o'tdi.

---

Shundan so'ng Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i F.Y.Zulfikarov so'zga chiqib, tizimda aniqlangan korrupsiyaga oid jinoyatlar va huquqbuzarliklar haqida ma'lumot berdi. Jamiyatning tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning aksariyatida fuqarolar ishonchiga kirib, firibgarlik yo'li bilan ishga joylashtirish va'dasi bilan o'zganing mulki va pul mablag'larini qo'lga kiritish, tashkilot tovar moddiy boyliklari va mablag'larini talon-toroj qilish, shuningdek mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish bilan bog'liq holatlar kuzatilgan. Ya'ni, kadrlar bilan ishlash va moddiy resurslarni boshqarish jarayonlari korrupsiyaga eng ko'p moyil bo'lgan yo'nalishlar sifatida namoyon bo'lgan. Xususan:

Hojiyev Jamshid Mahmudovich jiyani Ziyavuddin temir yo'l masofasi xodimi H. Mahmudov bilan oldindan til biriktirib, Hazratov Navro'zjon Zafar o'g'lini Navoiy viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasiga ishga joylashtirib qo'yishni va'da qilgan. Buning uchun Toshkent shahridagi mansabdor tanishlariga pora berish zarurligini bildirib, 2026-yil 18-yanvar kuni Karmana tumani "Kalovot" MFY hududidagi "Munis" to'yxonasi yaqinida N.Z. Hazratovdan 4 000 AQSH dollari olgan vaqtida jinoyat ustida qo'lga olingan.

Shuningdek, "Temiryo'linfratuzilma" AJ Toshkent temir yo'l masofasi filialida yo'l sozlovchisi bo'lib ishlagan B.Sh. Bobomurodov fuqaro B.R. Rasulovni temir yo'l tizimiga ishga joylashtirib berishni va'da qilib, 2 300 AQSH dollari olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan. Mazkur shaxs avval ham JKning 168-moddasi 2-qismi bilan sudlangan bo'lib, ahloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan bo'lgan.

Qo'ng'iro't vagon deposi xodimi Sh.J.Reymov fuqaro I.A.Yeshmurotovni temir yo'l korxonasiga ishga joylashtirib berishni va'da qilib, undan 5 mln so'm hamda qiymati 11 mln so'm bo'lgan konditsionerni firibgarlik yo'li bilan olganligi aniqlangan.

Paxtakor temir yo'l bekati boshlig'i D.N. Begimqulov fuqaro N.S. Artiqovani bekatga farrosh sifatida ishga qabul qildirishni va'da qilib, undan 15 mln so'm talab qilganligi aniqlangan.

Tezkor tadbir davomida Termiz lokomotiv deposi xodimi M.N. Nosirov fuqaroni ishga joylashtirish masalasini hal qilib berishni va'da qilib, 700 AQSH dollari olgan vaqtida ushlangan.

Qo'ng'iro't lokomotiv deposining katta omborchisi O'.S. Xasanov tomonidan omborxonadagi umumiy qiymati 201,4 mln so'mdan ortiq bo'lgan tovar-moddiy boyliklar o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan talon-taroj qilingani aniqlangan. Mazkur shaxs ilgari ham korrupsiyaga oid jinoyat uchun sudlangan bo'lishiga qaramasdan, takroran jinoyat sodir etgan.

F.Y.Zulfikarov mazkur jinoyatlarni sodir etilishiga imkon yaratgan sharoitlar qatorida fuqarolarda ishga qabul qilish belgilangan tartib asosida

---

amalga oshirilishi haqida yetarli tushuncha shakllanmagani, mavjud bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar aholiga ochiq e'lon qilinmagani, tizim tashkilotlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot ishlari yetarlicha yo'lga qo'yilmagani, tovar-moddiy boyliklar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beruvchi elektron tizimlardan foydalanish darajasi pastligi, sudlanganlik tarixi mavjud yoki korrupsiyaviy xavfi yuqori bo'lgan xodimlar faoliyati ustidan kuchaytirilgan nazorat o'rnatilmaganini sanab o'tdi.

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda yig'ilish **qaror qiladi:**

**1.** O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2026-yil 8-iyundagi 04-06/5236-sonli-XDFU xatida keltirilgan **korrupsiyaning oldini olish klasterining 2026-yil uchun ish rejasi** ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Jamiyat tarkibidagi barcha departament, boshqarma, markaz va boshqa tarkibiy tuzilmalar, mas'uliyati cheklangan va aksiyadorlik jamiyatlari rahbarlari o'z tizimlarida qayd etilgan korrupsiyaga oid jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan sharoitlarni aniqlab, puxta tahlil qilgan holda ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar va takliflar ishlab chiqsinlar. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash yo'nalishlari hamda indikator ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlarning o'z vaqtida va sifatli tayyorlanishi hamda taqdim etilishi ustidan nazorat o'rnatinsinlar. Mazkur chora-tadbirlar, takliflar va hisobotlar Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga tegishli muddatlarda taqdim etib borilishi ta'minlansin.

**3.** Mazkur bayon ijrosi ustidan nazorat "O'zbekiston temir yo'llari" AJ boshqaruv raisi o'rinbosari J.Z.Yusupov zimmasiga yuklansin.

**Bayon yurituvchi**  
**J. Rustamov**

